Xayrullayeva Kamola Ravshanovna (Osiyo Xalqaro Universiteti, f.f.f.d. (PhD);
E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com)

A.RUTHERFORD VA P.QODIROV TARIXIY-BIOGRAFIK ROMANLARIDA HUMOYUN MIRZO OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boburiy hukmdorlar biri bo'lgan Humoyun Mirzo tarixiga bag'ishlab yozilgan Alex Rutherford qalamiga mansub "Empire of the Moghul" hamda Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" tarixiy-biografik romanlari o'zaro qiyoslanadi, adabiyotshunoslik qonunlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asarlarda Humoyun Mirzo portreti tasviri, yozuvchilar talqini bo'yicha Boburiy podshoh xarakter-xususiyatlarining berilishi, Humoyunning hayoti, harbiy yurishlari bilan bog'liq tarixiy haqiqatlarning to'laligicha qamrab olinishi kabi masalalar o'zaro qiyoslanadi, o'xshashlik hamda farqli jihatlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *Bobur Mirzo, Humoyun Mirzo, Alex Rutherford, Pirimqul Qodirov, Gulbadanbegim, Komron Mirzo, Askariy Mirzo.*

Хайруллаева Камола Равшановна (Азиатский международный университет, кандидат наук (PhD); E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com)

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ХУМОЮН МИРЗА В ИСТОРИКО-БИОГРАФИЧЕСКИХ РОМАНАХ А.РУТХЕРФОРДА И П.КАДЫРОВА

Аннотация. *В данной статье проводится сравнение историко-биографического романа Алекса Резерфорда «Империя Великих Моголов», посвященного истории одного из правителей династии Бабуров, Хумаюна Мирзы, и романа Пиримкула Кодирова «Переход поколений», а также их анализ с точки зрения законов литературной критики. В работах сравниваются такие вопросы, как изображение Хумаюна Мирзы, черты характера правителя Бабура в интерпретации авторов, а также полнота изложения исторических фактов, связанных с жизнью и военными походами Хумаюна, и выявляются сходства и различия.*

Ключевые слова: *Бабур Мирза, Хумаюн Мирза, Алекс Резерфорд, Пиримкул Кодиров, Гульбаданбегим, Комрон Мирза, Аскарий Мирза.*

Khayrullayeva Kamola Ravshanovna (Asian International University, PhD;
E-mail: khayrullayevakamola95@gmail.com)

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF HUMOYUN MIRZA IN THE HISTORICAL-BIOGRAPHIC NOVELS OF A.RUTHERFORD AND P.KADYROV

Annotation. *This article compares Alex Rutherford's historical-biographical novel "The Empire of the Moghul" written about the history of one of the Baburid rulers, Humayun Mirza, and Pirimqul Qodirov's "Passage of Generations", and analyzes them from the point of view of the laws of literary criticism. The works compare issues such as the portrayal of Humayun Mirza, the character traits of the Babur king according to the writers' interpretation, and the complete coverage of historical facts related to Humayun's life and military campaigns, and identify similarities and differences.*

Keywords: *Babur Mirza, Humayun Mirza, Alex Rutherford, Pirimqul Qodirov, Gulbadanbegim, Komron Mirza, Askariy Mirza.*

Kirish. Dunyo tarixida uzoq muddat davomida hokimiyatni o'z qo'lida ushlab turgan eng buyuk sulolalardan biri bu Hindistonda Boburiylar sulolasidir. Boburiy hukmdorlar davlat boshqaruvi davrida mamlakatda juda ko'p madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar sodir bo'ldi, ularning orasida Bobur Mirzoning taxt vorisi bo'lgan Humoyun Mirzo Hindistonda olib borgan siyosati alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bobur Mirzoning taxtni egallashidan tortib, Hindistonda buyuk davlatga asos solishi, keyingi Boburiylar avlodlari davridan to bu sulolaning inglizlar tomonidan qulatilishiga qadar bo'lgan voqealarni o'zida qamrab olgan 6 kitobdan iborat "The empire of the Moghul" ("Mo'g'ul Imperiyasi") nomli roman-epopeya ikkovlari uchun bir umumiy Alex Rutherford taxallusini qo'llagan er-xotin yozuvchilar Maykl va Diana Preston tomonidan yozilgan. Roman-epopeyaning ikkinchi kitobi "Brothers at war" ("Aka-ukalar jangi") deb nomlanadi va bu roman to'laligicha Humoyun Mirzo hayot yo'li, boshidan kechirgan yaxshi va yomon kunlari haqidadir. Biz ushbu badiiy asarni mashhur o'zbek adibi Pirimqul Qodiorvning "Avlodlar dovoni" tarixiy romani bilan bir o'ringa qo'yib, qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, analitik, psixologik va kompleks tahlil kabi metodlar qo'llanildi. Maqolani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon adabiyotshunoslarining asarlari e'tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi. Tadqiqotimizda boshqa ilmiy ishlardan farqli o'laroq Bobur va Boburiylar sulolasi vakillaridan bo'lgan Humoyun Mirzo

obrazi bugungi qiyosiy adabiyotshunoslik qonuniyatlari nuqtai nazaridan qiyosiy aspektda yaxlit badiiy tizim sifatida tadqiq qilindi.

Tahlil va natijalar. "Mo'g'ul imperiyasi" asarida yozuvchi Humoyunning jangchilik mahoratiga baho berar ekan, shunday yozadi: *"But from the days of his youth Humayun had been a good wrestler – quick and strong – and the skills hadn't deserted him"* [2;168-b.]. Bizga ma'lum bo'lishicha, yosh podshoh juda kuchli va tezkor kurashchi bo'lgan, raqibining kelgusi harakatlarini oldindan ko'ra olgan, har bir zarbaga oldindan ruhan va jismonan tayyor tura olgan.

O'zbek adibi Pirimqul Qodirovning asarlariga nazar solsak, Humoyun Mirzo jangchilik mahoratining biroz boshqacharoq talqiniga ko'zimiz tushadi: *"U yoshlikda ikki qo'llab qilich chopishga o'rgangan edi. Qazvinda shohning qarorini kutib, oylar davomida zerikib yurgan paytlarida o'ng qo'lini orqasiga bog'lab qo'yib, chapaqayiga qilich chopishlarni qayta-qayta mashq qilgan edi"* [1;205-b.]. Yuqoridagi talqindan ko'rinib turibdiki, Humoyun Mirzo qilichbozlikda ham tengsiz bo'lgan. Kurash maydonida har xil vaziyat bo'lishini inobatga olgan podsho har ikkala qo'lida ham bemalol qilich ko'tarib dushmanni yenga olishi uchun tinimsiz mashq qilgan. Urush paytida o'ng qo'li jarohatlanib qolgudek bo'lsa, chap qo'li bilan kurashni davom ettira olishlari uchun bu mashqlar juda qo'l kelardi, zero bu raqiblar mag'lubiyatining garovi bo'lishi mumkin edi.

Yosh hukmdor Humoyun Mirzo otasi Bobur Mirzoning o'limi oldidan aytgan vasiyatini doimo yodida saqlaydi. O'gay ukalarining, ayniqsa, o'zidan atigi bir necha oyga kichkina bo'lgan Komron Mirzoning butun Hindistonni qo'lga olish, taxtni egallash uchun qilgan xiyonatlariga qaramasdan, Humoyun Mirzo ularni avf etadi. Bunda Humoyunning tabiatiga xos bo'lgan sofdillik, rahmdillik xislatlari ukalariga nisbatn g'azab-nafratdan ustun kelganligi ham sabab bo'ldi deyishimiz mumkin: *"It is not fitting that we brothers should quarrel. I do not wish to spill the blood of our house into the earth of this new land of ours – it would be a bad omen for our dynasty. Swear your loyalty to me and you shall live. I will also give you provinces to govern which, though part of the empire, you shall rule as your own, subject only to me.* [2;25-b.]. Yuqorida berilgan parchadan ko'rishimiz mumkinki, Humoyun Mirzo ukalarini qatl ettirish niyatida emasligini, agar ular sadoqat bilan xizmat qilsalar, ba'zi hududlar boshqaruvini ham ularga topshirishini aytib kelishuv taklif qiladi. Ukalari esa faqatgina hukmdor yonidagina sadoqatlarini izhor etib, ko'zboyamachilik yo'lini tutadilar. Oqibatda esa ularni ayanchli qismat kutmoqda edi.

"Avlodlar dovoni" romanida esa to'rt aka-ukaning otasi qabri huzuriga borishlari va shu onda Humoyunning ukalariga ahillikni taklif qilib aytgan so'zlari shunday beriladi: *"Hazrat otajon, shukur, mana, barcha o'g'illaringiz sog', omon. Huzuringizga birga kelish orzusida edik. Bugun shu orzuga yetdik. – U inilariga yuzlandi: –Padari buzrukvorning ruhlari oldida ahd qilaylik, Komron, Askariy, Hindol- barchamiz minba'd ahillikni hech buzmaylik! Hech bir kimsa oramizga nifoq sololmasin. Omin!"* [1;265-b.]. Humoyun Mirzo padari buzrukvori Bobur Mirzoga o'limi oldidan bergan va'dasi tufayli ukalarining qilmishlarini doimo kechirib keladi, rahmdilligi ortidan og'ir kunlarni boshidan kechirishga majbur bo'ladi. O'zaro ichki kurashlar davom etayotgan, yakdillik bo'lmagan davlatni dushmanlar qiyinchiliksiz fath etadilar. Zaiflashib qolgan Humoyun armiyasi Shershoh hujumiga qarshi borolmaydi, Hindiston taxtidan ayrilgan podshoh esa bir necha yil darbadarlik va sarson-sargardonlikda hayot kechirishga mahkum bo'ladi. Balkim, avvalboshdan, ukalariga nisbatan qattiq jazo choralarini ko'rganida edi, davlat boshqaruvini qo'ldan boy bermagan, hukmdorligi davrida salmoqli ishlarni amalga oshira olgan bo'lardi.

Bobur Mirzo Hindistonda buyuk davlat tuza oldi, ammo bevaqt o'lim sabab o'z hokimiyatini mustahkamlashga ulgura olmadi. Uning vorisi Humoyun Mirzo esa otasi meros qilib qoldirgan davlatni qo'lida ushlab turish va yanada kengaytirish uchun yetarli darajada aql-zakovatli va kuchli emas edi. S.M.Jaffar yozib qoldirishicha, Humoyun Mirzo muvaffaqiyatsizligida asosiy omil- bu uning ko'ngli bo'shligi va yumshoq tabiatligida edi. *"Boburdan Avrangzebgacha bo'lgan davrda Mo'g'ul imperiyasi"* asarida shunday yoziladi: *"His leniency was his mistake and his inconsistency was his blunder. His own brothers were now sufficiently strong to support their own claims to the throne and there was nothing to prevent them from doing that"* [3;65-b.]. Humoyunning rahmdilligi taxtni egallash uchun bosh ko'targan ukalariga qarshi qilich ko'tarishiga yo'l qo'ymaydi. Oqibatda davlat boshqaruvida parokandalik yuzaga keladi. Bu siyosiy jarayonlar Humoyunning bir necha yil oila a'zolari va o'ziga sodiq navkarlari bilan bir necha yil Eron shohi Taxmasp saroyida sig'indi bo'lib yashashiga, sargardonlikda umr kechirishiga sabab bo'ldi. Ammo hayotining so'nggi yillarida qayta taxtni qo'lga kiritadi, qisqa bo'lsa-da, odilona siyosat yuritadi.

Humoyun Mirzo tabiatiga xos xarakter-xususiyatlardan bir xususida *"Avlodlar dovoni"* romanining bir o'rnida shunday deyiladi: *"Aslzodalarga xos nazokat bilan tarbiya ko'rib o'sgan Komron, "avomga o'zingni teng tutsang, darhol tepangga chiqgay",degan e'tiqodda edi. Humoyun esa beg'ubor, oddiy odamlarga yaqin bo'lishni yaxshi ko'rar, o'g'li Akbarning to'yida u, hatto Imomquli degan navkari bilan kurash tushgan edi"* [1;267-b.]. Humoyun Mirzo o'zining samimiyligi va soddadilligi bilan boshqa aka-ukalaridan

ajralib turardi. O‘zining hukmdor oilasi mansub ekanligini barchaning oldida ko‘z-ko‘z qilishni xush ko‘ruvchi Komron Mirzodan farqli o‘laroq, Humoyun Mirzo zodagon bo‘lsa-da, qo‘l ostidagi navkarlari bilan bir qatorda turishdan, hattoki ular bilan birga vaqt o‘tkazishdan hech qachon orlanmagan. Balkim, uning aynan sodda va ishonuvchan ekanligi boshiga shuncha musibatlar yog‘ilishiga sabab bo‘lgandir.

Komron Mirzoning ayanchli qismati xususida Pirimqul Qodirov o‘z romanlarida so‘z yuritadilar. Humoyun Mirzoning sofdilligi va rahmdilligidan foydalanib kelgan Komron Mirzo akasiga bir necha bor xiyonat qilgan edi. Boburiylarning Sherxon qo‘shinidan mag‘lub bo‘lishlari va Hindiston taxtidan mahrum bo‘lishlariga asosiy sabab ham aynan shahzodalarning yakdillikda harakat qilmaganliklarida edi. Humoyun Mirzo esa doim ukalariga sulh yo‘lini tutishni taklif qilib, ularni kechirib keldi. Jondan aziz merosxo‘ri Akbarning hayotini xavf ostiga qo‘yganida ham, ukasi Hindol Mirzoning bevaqt o‘limiga sabab bo‘lganida ham g‘azabini ichiga yutdi. Ammo sabr kosasi to‘lgan Humoyun Mirzo otasi Bobur Mirzoning esdaliklaridan keltirilgan *“Davlat ishida qattiq turilmasa, murod hosil bo‘lmagay!”* degan fikrlarini yodga oladi va ukasining taqdiri bilan bog‘liq so‘nggi qarorni qabul qiladi.

Humoyun Mirzo bir necha bor xiyonat yo‘liga kirgan ukasini qanday qilib jazolash xususida bir necha kun davomida chuqur o‘ylaydi. Bunday ichiqora va subutsiz ukaning jazosi o‘lim ekanligi, shubhasiz edi. O‘g‘lining dog‘ida yillar davomida kuyib yurgan Hamidabonu ham, tug‘ishgan opasi Gulbadan begim ham Humoyundan Komronni o‘limga hukm qilishni so‘rashadi. Ammo Humoyun Mirzo otasi Bobur Mirzoning *“ukalari shunga munosib bo‘lsalar-da, hech qachon ularning qonini to‘kmaslikni”* so‘rab qilgan vasiyatini yodga oladi. To‘g‘ri yo‘lni topish uchun otasining esdaliklarini qo‘lga oladi. Shunda ulug‘ bobokaloni Amir Temurning ichki kurashlarni kuchaytirmaslik uchun o‘z avlodidan bo‘lgan xiyonatkor beklarning ko‘zini ko‘r qilganligi xususidagi voqeotlarga ko‘zi tushadi. Humoyun ham ukasining qilmishlari uchun bu eng to‘g‘ri tadbir bo‘lishini tushunib yetadi: *“Immediately, Humayun knew that this must be Kamran’s fate. His threat would be extinguished with his sight. No rebellious chief could ever again consider Kamran a rival to Humayun. Yet his half-brother would have time to consider and perhaps to repent before he was called to eternal judgement”* [2;335-b.]. Humoyun Mirzoning shafqatsiz, qonxo‘r bo‘lmaganligini shu satrlarni o‘qib tushunishimiz mumkin. Balkim, bu unga otasi Bobur Mirzodan o‘tgandir. Bobur Mirzo ham taxt uchun unga qarshi kurash olib borgan ukasi Jahongir Mirzoni avf etadi, hatto umrining oxirigacha tinchlik va farovonlikda yashashi uchun o‘z qanoti ostiga oladi. Humoyun Mirzo ham o‘z tug‘ishgan ukasini o‘limga hukm qilishi mumkin edi, ammo boshqa maqbulroq jazo chorasini ko‘rishni afzal ko‘radi. Akasidan avf tilab kelgan Askariy Mirzoning ham hayotini saqlab qoladi, gunohlaridan forig‘ bo‘lishi niyatida Haj safariga xavfsiz borishi uchun ham sharoit yaratadi. Afsuski, Haj safariga borish yo‘lida Askariy Mirzo qaroqchi va talonchilar hujumiga uchrab, halok bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Alex Rutherford qalamiga mansub mashhur tarixiy-biografik romani mutolaa etar ekanmiz, ingliz yozuvchisining Humoyun Mirzo hayot yo‘lini boricha ochib berganligiga guvoh bo‘ldik. Bu dunyoda mukammal inson bo‘lmaganidek, shoh va sarkardaning barcha yutuqlari-yu, kamchiliklari ham to‘laligicha kitobxonlarga havola etilgan. Yozuvchilarning adabiy mahorati, turli badiiy usullardan mohirona foydalanishlari kitobxonlar qiziqishini yanada oshirish tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qodirov P. Avlodlar dovoni. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2018, 671-bet.
(2). Rutherford A. Brothers at war. London, Headline publishing group, 2011, 407 p.
(3). Jaffar S.M. The Mughal Empire from Babur to Aurangzeb. Peshawar, Kissa Khani, 1936, 491 p.
(4). Gulbadanbegim. Humoyunnoma. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1988.

Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Roman-german filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi),
Shonazarova Sevinchoy Davronbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Lingvistika: fransuz tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti; E-mail: shonazarovasevinchoy67@gmail.com)

STENDALNING “QIZIL VA QORA” ROMANIDA STILISTIK FIGURALARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr fransuz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Stendalning “Qizil va qora” romanidagi stilistik figuralar ya’ni til va uslubga oid retorik qurilmalar, metaforalar, simvolik elementlar va tasviriy vositalarning badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor stilistik figuralarning ijodiy vazifasi, ularning ma’no kengaytirish, obrazlarni jonlantirish, psixologik chuqurlikni berish va roman voqealarining dramatik ifodasidagi roliga qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *stilistik figuralar, estetika, patetik ohang, retorika, simvolik tizim, simvolika, ambitsiya, ranglar simvolikasi, contrast, psixologik realism, qahramon ruhiyati, semantik yuklama.*